

**SALMONELLYOZLAR EPIZOOTIK JARAYONINING NAMOYON  
BO‘LISHI**

*N.S.Saidkasimova, M.K Jumaniyazova, N.T. Xamzayeva*

Hozirgi vaqtda parrandachilik sanoati O‘zbekistonda yuqori sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Bu o‘z navbatida ko‘pgina zoonoz kasalliklar bilan kasallanishni keltirib chiqaradi. Zoonoz kasalliklardan parrandalar salmonellezi - ko‘pgina qishlok xo‘jalik va yovvoyi parrandalarning infeksiyon kasalligi bo‘lib, yosh organizmda oshqozon-ichak, nafas olish tizimi a‘zolarining zararlanishi va septitsemiya bilan, voyaga yetgan parrandalarda esa tuxum yetishtiruvchi a‘zolarining kasallanishi, klinik belgisiz yoki surunkali kechish bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari, ushbu kasallik qo‘zg‘atuvchisi - salmonellalar odamlarda oziq-ovqat orqali zaharlanishni keltirib chiqaradi. Ko‘pgina davlatlarda, shu jumladan O‘zbekistonda ham, parrandachilik va qishlok xo‘jaligi hayvonlarida ham salmonellyoz kasalligi keng tarqalgan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, odamlar va hayvonlarga xos bo‘lgan bir qator infeksiyalar orasida salmonellyoz kasalligiga qarshi kurashishning murakkabligi va uni yo‘q qilish muammolari o‘ziga xos qiyinchiliklardan iborat. Bunday qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri - kasallik qo‘zg‘atuvchi salmonellalarning juda xilma-xilligidir. Ularning 2500 dan ortiq serologik variantlari mavjud, shulardan 230 tasi parrandalarda, 700 tasi odamlarda uchraydi. Parrandachilikni jadal rivojlantirishdek muhim muammoni muvaffaqiyatli amalga oshirishda parrandalarda uchraydigan infeksiyon kasalliklar, shu jumladan salmonellyoz katta to‘siq bo‘lmokda. Kasallik respublikamizning ayrim parrandachilik fermalarida mavjud bo‘lib, ularga sezilarli darajada iqtisodiy zarar yetkazmoqda. Salmonellalar (ich terlama va paratif kasalliklaridan tashqari) turli hayvonlarda, jumladan uy hayvonlarida kasallik chaqiradi, xususan, yirik va mayda shoxli hayvonlar, cho‘chqa, qushlar - tovuq, g‘oz, o‘rdak, kurkalar salmonellalarning manbai bo‘lishi mumkin.

Hayvonlarda infeksiyon jarayon qo‘zg‘atuvchining virulentligiga, xo‘jayinning shu kasallikka moslashganligiga bog‘liq holda butun organizmga tarqalgan shaklda, yaqqol belgilar bilan kechadi, ya‘ni - bakteriemiya, qo‘zg‘atuvchining organizmga tarqalishi, xususan, muskullarga tarqalishi bilan kechadi. Ba‘zan kasallik, mahalliy diareya belgilari bilan namoyon bo‘lib, bakteriemiya kuzatilmaydi. *Salmonella spp.* ko‘p hollarda bakterial gastroenteritni keltirib chiqaradi. Salmonellyoz zoonoz kasallik bo‘lganligi sababli kasallikning asosiy manbai hayvonlar, qushlar va hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan ovqatlar asosiy yuqtirish omili hisoblanadi. Hayvonlar orasida ko‘p tarqalgan asosiy manbalari - tovuqlar, o‘rdaklar, kurkalar, yirik va mayda shoxli qoramollar, cho‘chqalar hisoblanadi. Salmonellalarning hayvon mahsulotlarida

uzoq saqlanishi sababli go'shtlarni chala pishirish oqibatida hayvon mahsulotlari asosiy yuqtiruvchi omil hisoblanadi. Kasallik qo'zg'atuvchisining asosiy manbai - kasal parrandadir, ular axlati bilan qo'zg'atuvchini tashqi muhitga chiqaradi. Salmonellyoz kasalligi transovarial - tuxum orqali ham o'tadi. Tuxum tug'adigan parrandalarda tuxum qo'yish soni sezilarli darajada o'zgarib turadi va tuxum qo'yishning o'sib borishi bilan tuxum orqali kasallikning tarqalishi ham ortadi. Kasallikka sabab bo'luvchi omil tuxum sarig'i tarkibida bo'lib, embrion rivojlanishning barcha bosqichlarida embrionlarning o'limiga sabab bo'ladi. Kasallangan parranda qo'zg'atuvchini tashqi muhitga chiqaradi, shu yo'l bilan ozuqa, suv va asbob-uskunalarni zararlaydi. Kaliforniyada olib borilgan tadqiqotlarda 41% kurkalarda, 50% tovuqlarda va 21% muzlatilgan tuxum oqsilida salmonellyoz qo'zg'atuvchilari aniqlangan. Salmonellyoz kasalligini chaqiruvchi mikroblarning tabiatdagi asosiy manbalaridan biri yovvoyi va uy parrandalari, birinchi navbatda o'rdaklar, g'oz va tovuqlardir. Salmonellalarga 15-20 kunlik suvda yuruvchi parrandalar, jo'jalar va kurka bolalari, kaptar va bedana juda moyil va ularda kasallik og'irroq o'tadi. Kasallikka barcha turdagi uy va yovvoyi hayvonlar va odamlar chalinadi. Salmonellyozga jo'jalar (shu jumladan broylerlar) kurka bolalari, tovuq, kurka, suvda suzuvchi parrandalar, kaptar, bedana juda sezgirdir. *S. gallinarium* - tovuq, kurka, qirg'iy, bedana, to'tiqushlarda pulloroz va parranda tifini chaqiradi, kamdan-kam holatlarda, oziq -ovqat toksikinfeksiyasini chaqiradi. Kabutar salmonellyozi *S. Typhimurium* 90% holatlarida odamning oziq-ovqat mahsulotlari bilan kasallanishiga sababchi bo'ladi. *Salmonella enteritidis* sabab bo'lgan epidemik avj olish voyaga yetgan tovuqlarda, jo'ja va embrionlarda qayd etiladi. Yosh parrandalarning o'limi 50-80% ni tashkil qiladi. Kasallikdan kelib chiqadigan iqtisodiy zarar, asosan yosh jo'jalarning o'limi, kasallikning kuchayib borishi va rivojlanishi natijasida katta yoshli parrandalarning tuxum va go'sht maxsuldorligini pasayishi, kasallangan parrandalarni davolash va veterinariya-sanitariya hamda xo'jalikdagi cheklov tadbirlariga sarflangan xarajatlardan tashkil topadi. Bundan tashqari, tovuqlar organizmi zaiflashib, boshqa infeksiyon kasalliklarga moyil bo'lib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саидкасимова, Н. С., Матназарова, Г. С., Хамзаева, Н. Т., & Жуманиязова, М. К. (2024). COVID-19 пандемияси даврида сальмонеллез билан касалланишнинг эпидемик жараёнининг хусусиятлари. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 32(1), 27-30.
2. Sultanovna, M. G., & Sayfullaevna, S. N. (2024). The mechanism of development of the epidemic process in salmonellosis. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 41(5), 201-205.
3. Саидкасимова Н. С., Жуманиязова М. К., Хамзаева Н. Т. Влияние социальных факторов на формирование заболеваемости сальмонеллёзов в узбекистане

//Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 96-97.

4. Миртазаев, О. М., Матназарова, Г. С., & Магзумов, Х. Б. (2023). Зоонозный сальмонеллёз-болезнь цивилизации. *микробиологиянинг долзарб муаммолари» мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани*, 132.
5. Saidkasimova, N. S., Mirtazaev, O. M., & Matnazarova, G. S. (2023). Salmonellyozlarda epidemiologik va epizotologik nazorat.
6. Миртазаев, О. М., Матназарова, Г. С., Саидкасимова, Н. С., & Магзумов, Х. Б. (2022). Сальмонеллёзларга қарши курашиш ва унинг олдини олиш бўйича чора тадбирлар тизимини назарий асослаш. Международная научно-практическая конференция" Актуальные проблемы инфектологии, эпидемиологии и паразитологии".
7. Миртазаев, О. М., Саидкасимова, Н. С., Матназарова, Г. С., & Хатамов, А. (2022). характеристика проявления эпидемического процесса сальмонеллёза. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(2), 18-31.
8. Саидкасимова, Н., & Миртазаев, О. (2021). ўзбекистонда сальмонеллёзларнинг эпизоотологик ва эпидемиологик назоратини такомиллаштириш.
9. Саидкасимова, Н. (2021). Алгоритм проведения эпизоотолого-эпидемического надзора за сальмонеллезами в Узбекистане.
10. Миртазаев, О. М., Матназарова, Г. С., & Брико, Н. И. ЭПИДЕМИОЛОГИЯ.
11. Saidkasimova, N. S., Mirtazaev, O. M., Matnazarova, G. S., Toshbaev, B. Y., & Khatamov, A. H. (2021). Epidemiological and Epizootological Characteristics of Salmonellosis and Improvement of Their Epidemiological Control. *JournalNX*, 610-618.
12. Саидкасимова, Н. С., Миртазаев, О. М., & Миртазаева, Н. А. (2020). Социальные факторы, влияющие на заболеваемость сальмонеллезами в Узбекистане. In *Школа эпидемиологов: теоретические и прикладные аспекты эпидемиологии* (pp. 63-65).
13. Mirtazayev, O. M., Briko, N. I., Matnazarova, G. S., Saidkasimova, N. S., Toshboev, B. Y., & Khamzaeva, N. T. (2020). Scientific, methodological and organizational bases of management of the epidemic process in case of salmonellosis infection in uzbekistan. *Central Asian Journal of Pediatrics*, 3, 5-14.
14. Mirtazayev, O. M., Briko, N. I., Matnazarova, G. S., Saidkasimova, N. S., Toshboev, B. Y., & Khamzaeva, N. T. (2020). Scientific, methodological and organizational bases of management of the epidemic process in case of salmonellosis infection in uzbekistan. *Central Asian Journal of Pediatrics*, 3, 5-14.
15. Саидкасимова, Н., & Миртазаев, О. (2021). ўзбекистонда сальмонеллёзларнинг эпизоотологик ва эпидемиологик назоратини такомиллаштириш.